



FRANSUZ TILI DARSLARIDA VIRTUAL SAYOHATLARNI TASHKIL ETISH TA'LIM SIFATINI OSHIRISH OMILI SIFATIDA

Qahhorova Shahnoza
Navoiy davlat universiteti

ANNOTATSIYA: Mazkur ishda fransuz tili darslarida virtual sayohatlarni tashkil etish ta'lim sifatini oshirish omili sifatida ko'rilgan bo'lib, zamonaviy texnologiyalarning o'quv jarayonidagi o'rniga doir nazariy qarashlar, fikrlar tahlilga tortilgan. Virtual sayohatlarning til o'rganishdagi imkoniyatlari va qulayliklari yoritilgan, yurtimizda va xorijdagi ta'lim jarayonida virtual sayohatlar o'tkazish sohasida ulardan foydalanish tajribasi o'rganilgan, pedagogik jarayonlarda ularning til o'rganishga bo'lgan ahamiyati ochib berilgan.

Kalit so'zlar: Virtual reallik (VR), Kengaytirilgan reallik (AR), texnologiya, virtual olam, immersiv ta'lim, virtual ekskursiyalar.

Fan, texnika va texnologiyalarning rivojlanishi, madaniyatlararo muloqotning rivojlanishiga ta'lim berish metodlari va vositalarining o'zgarishiga va natijada ta'limning jamiyatdagi roli va o'rnini o'zgarishiga olib kelmoqda. XXI asrda jamiyat ikki o'lchovda yashashga majbur bo'ldi: real va virtual. Real hayot bu inson yashab turgan olam bo'lsa, virtual olam-yuqori texnologiyalar yordamida real hayotni his qilish uchun inson tomonidan real hayotga taqlid qilingan real bo'lmagan olam. Bunda masofaviy yoki moliyaviy yohud vaqt jihatidan yetish imkonsiz yoki uzoq bo'lgan real fenomenlarni virtual ko'rib, his qilib informatsiya olish, bilish va o'rganish imkoniyatini beradi. Zamonaviy texnologiyalar bizga dars olib borishni kengaytirish imkonini beradi va ta'lim jarayonini takomillashtirish uchun yangi o'qitish shakllaridan va virtual vositalardan, xususan, VR/AR texnologiyasidan foydalanishni talab qiladi.

Virtual reallik -VR, inglizcha: virtual reality, VR, sun'iy haqiqat – texnik vositalar yordamida yaratilgan, insonga uning his-tuyg'ulari orqali uzatiladigan dunyo: ko'rish, eshitish, teginish va boshqalar.

Bugungi kunda texnik va texnologik imkoniyatlar, kishilarga yopiq yoki hattoki mavjud bo'lmagan manzillarga yetish imkonini beradigan virtual turizm ham yo'lga qo'yilgan. Hozirda VR yordamida, insonlar o'rnidan qo'zg'alman holda, dunyoning istalgan nuqtasidagi badiiy muzeylarga tashrif buyurish, ko'plab diqqatga sazovor joylarga masalan: Eyfel minorasiga sayohat qilishi hattoki, Luvrni aylanib chiqish mumkin va bular hali shunchaki boshlanishi ekanligi ta'kinlanadi.

Augmented reality-AR ingliz tilidan ya'ni kengaytirilgan reallik degani. Texnologik imkoniyatning bu turi - kamera orqali real dunyoni ko'rib, unga raqamli tasvirlar qo'shish (masalan, Instagram filtrlari) imkoniyatini beradi.

Kengaytirilgan reallik (AR) biz ko'rib turgan real dunyoga ekran orqali turli raqamli elementlar qo'shadi. Bu jarayonni esa smartfon yoki AR ko'zoynaklari orqali ko'zimizga ko'rinadigan "raqamli qo'shimcha" sifatida tasavvur qilish mumkin. AR raqamli ma'lumotlarni real dunyoga joylashtiradi va atrofimizni yanada ko'proq elementlar bilan boyitadi. Buni haqiqiy dunyo ustiga raqamli qatlam qo'shish kabi tushunish mumkin. Masalan, Ikea mebel ishlab chiqaruvchi kompaniya mobil ilova yordamida oshxonaga o'rnatmoqchi bo'lgan mebellar to'plamini qanday turishini mijozlarga ko'rsatish uchun, aynan AR texnologiyasidan foydalanadi.



Chet tillarini o'qitish uchun AR va VR yordamida zamonaviy ta'lim loyihalarini amalga oshirish ko'p vaqt talab etmaydi va kelgusida bu kabi texnologiyalarni ta'limga olib kirish, ta'lim jarayoniga doimiy ravishda yangiliklar kiritish zarur va muqarrar jarayon hisoblanadi. Chunki texnologiyalar rivojlangan bugungi hayotda va yaqin kelajakda ham o'qituvchilar ta'lim jarayonini masofaviy texnologiyalar orqali tashkil etishga, "innovatsion qidiruv" rejimida ishlashga, noan'anaviy ish shakllaridan foydalanishga va o'qitish jarayoniga istiqbolli metodologik usullarni kiritishga majbur bo'ladi. Bugungi kunda ta'limdagi eng mashhur yechimlar - bu virtual turlarni yaratish va "qatnashish" hamda turli videolarni 360 daraja formatda ko'rish imkonini beruvchi dasturiy va apparat tizimlaridan foydalanish hisoblanadi.

Virtual sayohatlar til o'rganuvchilar uchun alohida qiziqish uyg'otadi, chunki tilning kommunikativ jihatini va uning haqiqiy nutqdan ajratilgan holda emas, balki lingvomadaniy muhitda ishlashini o'rganish bugungi kunda tobora dolzarb bo'lib bormoqda. 20-asr boshlarida taniqli metodistlar N.P. Antsiferov, V.A. Gerd, I.M. Grevs, E.A. Zvyagintsev, D.N. Kaygorodov, B.E. Raikov va N.G. Tarasov sayohat muloqoti masalalarini umumlashtira boshladilar. Fransuz tilini o'rganishda virtual sayohatlardan faol foydalanilganiga qaramay, metodologiya hali ham yetarlicha rivojlanmagan. Virtual sayohatlardan masofaviy formatda fransuz tilini o'qitish vositasi sifatida foydalanish "mavjudlik effekti"ni - jonli, esda qolarli vizual tasvirlar va deyarli haqiqiy muloqotni rag'batlantiruvchi haqiqiy obyektlar bilan o'zaro ta'sirni ta'minlaydi: talabalar "xarakterga kirishadilar" va o'zlari o'ynaydigan barcha vaziyatlarda ishtirok etadilar, ma'lum rollarni o'ynaydilar va "haqiqiy", hayotga o'xshash muammolarni hal qiladilar. T.M. Konyuxova "virtual ekskursiyalar chet tilini o'rganishda shubhasiz ahamiyatga va foydaga ega, bu ularning o'rganilayotgan til mamlakatining haqiqiy madaniyatining bir qismini bevosita yetkazishi va turli mamlakatlarga sayohat qilish imkoniyatini yaratishiga ishonadi. Notr dam de Pari ibodatxonasiga yoki Luvr kabi yirik muzeyga, qadimgi Rim davrida qurilgan inshootlar va boshqa diqqatga sazovor joylarga tashrif buyurish, virtual turlardan fransuz tilida ma'lum bir mavzu bo'yicha darslar seriyasi sifatida foydalanish mumkin: "Luvr muzeyi", "Strasburgda karnaval", "Fransiya shaharlari bo'ylab sayohat", "Mening sevimli fransuz yozuvchisi/shoirim " kabi virtual turlar talabalarni ko'proq qiziqtirishi mumkin.

Yu. A. Komarova va J. Wehage tomonidan taklif qilingan video ishlab chiqarish jarayonining an'anaviy bo'linishiga (video ishlab chiqarish jarayonining to'rt bosqichini tashkil qilish texnologiyasi) asoslanib, to'rtinchi asosiy bosqich (ijodiy bosqich) bizning oldimizga til va og'zaki muloqot ko'nikmalarini rivojlantirish maqsadini qo'yadi.

Ta'lim jarayonida talabalar "nafaqat tinglovchi, balki unda asosiy shaxs" rolini bajarishlari va o'z nuqtai nazarini ifoda etishlari, muhokamalarga rahbarlik qilishlari va to'g'ri qarorlar qabul qilishlari kerak. Kompetensiyaga asoslangan yondashuv faqat tayyor bilimlarni egallashni anglatmaydi; aksincha, o'z-o'zini rivojlantirish, o'zini o'zi tahlil qilish va o'zini o'zi ta'lim berish va o'zini takomillashtirish orqali shaxsiy salohiyatni faollashtirish uchun o'z strategiyasini tuzish qobiliyati ta'lim jarayonida katta ahamiyatga ega.

Bunda quyidagi xulosalarga kelish mumkin:

1. Virtual sayohatlardan muvaffaqiyatli foydalanish fransuz tilini o'qitishning barcha darajalarida fransuz tilini amaliy ko'nikmalarini rivojlantirishni kafolatlaydi;

2. Fransuz tili darslarida virtual ekskursiyalarning afzalligi taassurotlarning kuchi va ularning talabalarga hissiy ta'siridir;



3. Virtual ekskursiya talabalarni fransuz tilini o'zlashtirish jarayoniga jalb qilishga, ularni muloqot qobiliyatlarini oshirishga, tilshunoslik so'z boyligini va mintaqaviy bilimlarini kengaytirish va boyitishga undashga yordam beradi;

4. Fransuz tilida so'zlashuvchilarning nutqiy xatti-harakatlari normalari bilan lingvistik vositalarni o'zaro bog'lash qobiliyatini rivojlantiradi;

5. Chet tilidagi so'zlarni nutqda erkin ishlatishga to'sqinlik qiladigan uyatchanlikni yengishga yordam beradi, bu ularga o'zlarini ishonchliroq his qilish, nutqiy xatti-harakatlar strategiyasi va taktikasini aniqlash va shunga mos ravishda yuqori malakali professional nutqni rivojlantirish imkonini beradi.

Fransuz tili va Fransiyaning boy madaniyati, tarixiy obidalari va dunyoga mashhur muzeylari, fransuz tili o'rganuvchilarining o'quv mashg'ulotlari davomida virtual reallik (VR) va kengaytirilgan reallik (AR) texnologiyalari taqdim etadigan imkoniyatlardan foydalanib, fransuz tili samarali o'rganishi mumkinligini ta'kidlab o'tish lozim bo'ladi. Fransiya Respublikasida asosan turizm maqsadlarida va ko'proq turistlarni jalb qilish vositasi (reklama) sifatida deyarli barcha diqqatga sazovor joylarining, muzeylari va ulardagi barcha eksponatlarining, tarixiy va zamonaviy arxitektura binolarining hozirli holati va tarixining raqamli texnologiyalar bilan boyitilib, 360 gradus burchak ostida, diqqatga sazovor joylarning turli burchaklaridan turib yozib olingan visite virtuelle – virtual sayohat variantlari yaratilgan. Quyida Fransiya Poytaxti Parij shahrida joylashgan eng muhim diqqatga sazovor joylari va muzeylari va ularning eksponatlarini namoyish etish uchun yaratilgan VR virtual sayohat qilish lozim bo'lgan saytlardan havola keltirildi:

1. <https://www.airpano.com/360video/vr-paris/> Paris
2. <https://www.youtube.com/watch?v=TLXgrjZ7AdM> Musée du Louvre
3. <https://www.youtube.com/watch?v=LC8ZPLf8Yt4> la Tour Eiffel
4. <https://www.youtube.com/watch?v=NrCrrTn4mn4> Palais des Tuileries
5. <https://www.youtube.com/watch?v=2tsZ2XleQv0> Versailles après la Révolution
6. <https://spaces.wondavr.com/embed/?course=c8b8b0a0-617f-11eb-849b-5b1032d0a9af&presenter=true> Louvre
7. <https://www.chateauversailles.fr/decouvrir/les-ressources/visites-virtuelles-chateau-versailles#exposition-cheval-en-majeste> Versailles interieur
8. <https://spaces.wondavr.com/embed/?course=c8b8b0a0-617f-11eb-849b-5b1032d0a9af&presenter=true> Tous les musées
9. <https://www.youtube.com/watch?v=PARCzayWAjg> le Musée d'Orsay
10. <https://www.timographie360.fr/visites/visite-virtuelle/sacre-coeur/index.html>

Basilique Sacré Coeur

Yuqorida fransuz tilini o'qitish jarayonida VR/AR texnologiyalari yordamida fransuz tili darslarini tashkil etish uchun ba'zi virtual sayohat qilish uchun yaratilgan saytlardan namunalar keltirildi. Bizga ma'lumki, fransuz tili darslari davomida nafaqat til o'rganish sirlarini, shuning bilan birgalikda tili o'rganilayotgan mamlakatning madaniyati, adabiyot, san'ati, tarixi va hokazolar ham o'rganiladi. Masalan mamlakatshunoslik, tili o'rganilayotgan mamlakat adabiyoti kabi fanlarda bu VR/AR texnologiyalar bilan darsni olib borish, fransuz tilini o'rganishni yanada samaraliroq qiladi.

Pedagogik nuqtai nazardan olganda, VR/AR texnologiyalarining afzalligi o'zlashtirishni yanada yuqori ko'rsatgichga chiqarish emas, balki talabalarning ham o'quv jarayonida



faollashuvining shakllantirishga ham xizmat qiladi. Bugungi kunda o'qituvchidan talabaga yo'naltirilgan ta'lim konsepsiyasi emas, balki til o'rganuvchi talabaning o'zi tomonidan tashabbus qilingan o'rganish jarayoni jahon miqyosda asosiy ustuvor yo'nalishlardan biri sifatida qaralmoqda. Shuning uchun ham VR/AR texnologiyalari ta'lim metodikasida yangi bosqichni boshlab bermoqda VR va AR texnologiyalari asosidagi ta'lim sohasida izlanish olib borgan tadqiqotchilar tomonidan o'rganilgan tadqiqotlarda masalan: Mikropoulos va Natsis VR texnologiyalarining konstruktivistik ta'lim yondashuvi bilan uyg'unligini ta'kidlab, ularning bilimlarni chuqurroq o'zlashtirishga yordam berishini ko'rsatgan, boshqa yana bir qator tadqiqotlarda VR/ AR texnologiyalarini o'rganib, ularning talabalarda motivatsiyani sezilarli oshirishini aniqlagan. Shuningdek, AR texnologiyalarining aniq va tabiiy fanlarni o'qitilishida ko'proq samaraliroq ekanligini, bu texnologiyalarning murakkab jarayonlarni real hayotda hech bir xavf tahdid solmasdan tushunib olishida foydali ekanligi isbotlangan.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Bobonazarova, Z. (2019). Chet tillarni o'rgatishda zamonaviy texnologiyalar. Toshkent: TDPU nashriyoti.
2. Karimov, I. A. (2020). Zamonaviy AKT va ta'lim. Navoiy: NDPInash.
3. Habibullayeva, N. I. (2021). Ta'limda multimedia texnologiyalari. Samarqand: SamDU nash.
4. Qosimov, B. (2018). Fransuz tilini o'qitishda interaktiv usullar. Toshkent: O'qituvchi.
5. Ahmadaliyeva, G. T. (2021). Virtual platformalar ta'limda. Qarshi: QDU nashriyoti.
6. Yusupov, O. T. (2019). Masofaviy ta'lim texnologiyalari. Andijon: ADU nash.
7. Zoirova A.I. Xorijiy tillarni o'rgatishda raqamli texnologiyalardan foydalanishning afzallik tomonlari // inter education & global study. 2024.
8. Абдуллаева, Ш. (2021). Цифровой туризм как инструмент устойчивого развития отрасли. Журнал «Туризм и региональное развитие»,
9. Rustamova, N. (2022). Raqamli texnologiyalarning turizm sohasidagi o'rni. Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti ilmiy jurnali,